

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI**

**ICHIMLIK SUVI TA'MINOTI VA OQOVA SUV TIZIMINI YANADA
TAKOMILLASHTIRISH HAMDA SOHADAGI INVESTITSIYA
LOYIHALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI
TO'G'RISIDA**

So'nggi yillarda ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv obyektlarini davlat tomonidan tartibga solish, boshqarish va ekspluatatsiya qilish tizimini takomillashtirish maqsadida hududiy suv ta'minoti korxonalarini birlashtirgan holda "O'zuvta'minot" aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rnlarda — "O'zuvta'minot" AJ) tashkil etildi, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi (keyingi o'rnlarda — Vazirlik) tizimiga o'tkazildi. Natijada Vazirlikning ushbu sohadagi nazorat funksiyalari kengaytirilib, unga xos bo'limgan xo'jalik faoliyati bilan bog'liq vazifalar "O'zuvta'minot" AJga yuklatildi.

Suv ta'minoti va oqova suv xizmatlarini ko'rsatish yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, sohada shaffoflik hamda xususiy sektorning ishtirokini ta'minlash, "O'zuvta'minot" AJ va suv ta'minoti tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha [Harakatlar strategiyasida](#) belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida:

1. 2020-yil 1-oktabrdan boshlab ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv sohasida investitsiya loyihalalarini saralash, amalga oshirish hamda ularning natijadorligini monitoring qilish bo'yicha shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra:

loyiha takliflari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar Kengashlarida muhokama qilinishi va faqatgina ularning roziligi bilan amalga oshirilishi shart va har bir loyihaning bajarilishi holati muntazam ravishda tegishli mahalliy hokimiyat vakillik organlari deputatlari tomonidan joylarga chiqqan holda monitoring qilib boriladi;

shakllantirilgan loyiha takliflari bo'yicha loyihaoldi tadqiqotlari "O'zuvta'minot" AJ tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organlari, loyiha tashkilotlari hamda Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi bilan birgalikda har bir hududning xususiyatlarini inobatga olgan holda o'tkaziladi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari "O'zsuvta'minot" AJ bilan birligida loyihalarning sifatli amalga oshirilishi va hukumat kafolati ostida xalqaro moliya institutlaridan olingan kreditlarning qaytarilishi uchun javobgar hisoblanadi;

ichimlik suvi ta'minoti loyihalarida loyiha tashabbuskorining tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, hisoblagichlarning majburiy ravishda o'rnatilishi bilan bir qatorda ichimlik suvi uy xo'jaligigacha o'tkazilishi ham nazarda tutiladi. Bunda, tarmoqlarni uy xo'jaligigacha yetkazish sarf-xarajatlari amalga oshirilayotgan loyiha doirasida ajratilgan mablag'lar hisobidan qoplab beriladi.

2. Belgilansinki, buyurtmachi va pudrat tashkiloti o'rtasida suv ta'minoti va oqova suv sohasidagi investitsiya loyihasini amalga oshirish yuzasidan tuzilgan shartnomada va unga ilova qilinadigan mablag' bilan ta'minlash jadvalida quyidagilar hisobga olinishi zarur:

a) qurilishi yangidan boshlanayotgan tayyor holda foydalanishga topshiriladigan obyektlarni qurishda:

belgilangan tartibda ajratilgan avansning mutanosib ravishda ushlab qolinishini hisobga olgan holda, bajarilgan ishlarni qiymatining 90 foizi miqdorida har oyda joriy moliyalashtirish;

belgilangan tartibda tuzilgan shartnomalarda nazarda tutilgan kafolatli muddat o'tgandan keyin obyekt qiymatining 10 foizini to'lash;

b) obyektlarni shartnoma asosida qurishda (keyingi yilga o'tuvchi obyektlar, obyektlarni foydalanishga tayyor holda qurish hollaridan tashqari) ishlarning amalda bajarilishidan kelib chiqib, obyekt qiymatining kamida 90 foizi miqdorida har oyda joriy moliyalashtirish hamda qolgan 10 foiz miqdoridagi qismini shartnomada nazarda tutilgan kafolatli muddat o'tgandan keyin, biroq moliyaviy yil tugashidan kechiktirmay to'lash.

3. 2020-yil 1-oktabrdan boshlab hududlarda tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, suv ta'minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan suv ta'minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) ular bo'yicha dastlab monopoliyaga qarshi kurashish va narxlarni (tariflarni) tartibga solish organlari xulosalari olinib, keyinchalik tegishligicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qarorlari bilan ma'qullanganidan so'ng tasdiqlanadi.

Bunda, suv ta'minoti va oqova suv xizmatlari uchun tariflarni o'rnatilgan tartibda shakllantirish va belgilashda iste'molchilar uchun

ko'rsatiladigan xizmatlar tannarxini to'liq qoplash nazarda tutiladi, shuningdek, suv ta'minoti va oqova suv tashkilotlarini rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish xarajatlari hisobga olinadi.

4. Vazirlik va "O'zuvta'minot" AJning 2021-2022-yillarda **1-ilovadagi** ro'yxatga muvofiq tuman va shaharlarning ichimlik suvi ta'minoti tizimlarini tadbirkorlik subyektlariga davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida topshirish (keyingi o'rinnlarda — davlat-xususiy sheriklik loyihalari) to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

Vazirlar Mahkamasi (A. Ramatov) 2021-yil 1-aprelga qadar davlat-xususiy sheriklik loyihalari konsepsiyanining tasdiqlanishini ta'minlasin.

"O'zuvta'minot" AJ (S. Saifnazarov) Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi (G'. Xoljigitov) bilan birgalikda:

2021-yil 1-iyunga qadar tanlov (tender) o'tkazish to'g'risida ommaviy axborot vositalarida hamda o'z rasmiy veb-saytlarida e'lon qilsin;

2021-yil 1-sentabrga qadar tanlov (tender) hujjalarda bayon etilgan shartlar, muddatlar va tartib-taomillarga muvofiq tanlov (tender) g'olib bilan davlat-xususiy sheriklik to'g'risida bitimlarni rasmiylashtirsin.

Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi (G'. Xoljigitov) 2021-yil 15-sentabrga qadar davlat-xususiy sheriklik loyihalarining konsepsiysi va bitimini Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining reyestriga kirtsin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari "O'zuvta'minot" AJ bilan birgalikda xususiy sektorni keng jalg qilishda va xususiy investorlarning barqaror faoliyat yuritishiga amaliy yordam ko'rsatsin.

5. Belgilansinki, ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv tizimlarining davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida tadbirkorlik subyektlariga berilishi bo'yicha tanlovlari (tender)ni o'tkazishda tegishli hududdagi fuqarolar yig'ini raisi va boshqa jamoatchilik vakillari ishtiroki ta'minlanishi lozim.

6. Belgilab qo'yilsinki, 2021-yil 1-yanvardan boshlab:

Oldingi tahririga qarang.

(6-bandning "a" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi PF-193-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.11.2023-y., 06/23/193/0844-son)

b) "O'zsvuta'minot" AJ tuman (shahar) suv ta'minoti tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, avariyalarni bartaraf etish, xodimlarni moddiy rag'batlantirish va joriy ta'mirlashni moliyalashtirish uchun ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv xizmatlarini ko'rsatishdan tushgan mablag'larning kamida 10 foizi ularning maxsus hisob raqamlariga o'tkaziladi.

Oldingi tahrirga qarang.

(6-band "b" kichik bandining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi PF-193-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.11.2023-y., 06/23/193/0844-son)

7. Quyidagilar:

2021 — 2025-yillarga mo'ljallangan respublika va viloyatlarga bo'y sunuvchi shaharlar kesimida ichimlik suvi ta'minoti tizimlarini kompleks rivojlantirish dasturining yig'ma parametrlari **2-ilovaga** muvofiq;

2021 — 2025-yillarga mo'ljallangan tuman markazlari kesimida ichimlik suvi ta'minoti tizimlarini kompleks rivojlantirish dasturining yig'ma parametrlari **3-ilovaga** muvofiq;

2021 — 2025-yillarga mo'ljallangan respublika va viloyatlarga bo'y sunuvchi shaharlar kesimida oqova suv tizimlarini kompleks rivojlantirish dasturining yig'ma parametrlari **4-ilovaga** muvofiq;

2021 — 2025-yillarga mo'ljallangan tuman markazlari kesimida oqova suv tizimlarini kompleks rivojlantirish dasturining yig'ma parametrlari **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tegishliligi bo'yicha Investitsiya dasturlarini shakllantirishda ichimlik suvi va oqova suv tizimlarini kompleks rivojlantirish dasturlarida nazarda tutilgan loyihalarning investitsiya dasturlariga kiritilishini va ularning amalga oshirilishi ustidan monitoring olib borilishini ta'minlasin.

8. Belgilansinki:

Oldingi tahrirga qarang.

2020-yil 1-oktabrdan boshlab, Vazirlik har yili markazlashgan ichimlik suvi ta'minoti yetib bormagan qishloq aholi punktlarini ichimlik suvi bilan ta'minlash va ularga oqova suv xizmatlari ko'rsatish bo'yicha nodavlat notijorat tashkilotlariga va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish to'g'risida ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan elektron ommaviy axborot vositalarida tanlov e'lon qiladi. Bunda, davlat ijtimoiy

buyurtmalarining maqsadlari, shartlari va vazifalari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi;

(*8-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-maydagi PF-140-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.05.2022-y., 06/22/140/0450-son*)

davlat ijtimoiy buyurtmalari doirasida 2021-yilda Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida, 2022-yildan boshlab esa respublikaning boshqa hududlarida loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutiladi va loyihalarda oqova suv xizmatlari bilan ta'minlash ham nazarda tutiladi;

davlat ijtimoiy buyurtmalarida nazarda tutilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida ajratiladigan mablag'lar hisobidan Vazirlikka 2021-yil uchun 14 mlrd so'm alohida ajratiladi.

Bunda, keyingi yillarda ushbu maqsadlar uchun budgetdan ajratiladigan mablag'lar va loyihalar soni Vazirlikning asoslantirilgan hisob-kitoblariga ko'ra oshirib boriladi.

9. Vazirlik (M. Saliyev) har chorakda davlat ijtimoiy buyurtmalarini o'z vaqtida berish, loyihalarning samarali amalga oshirilishini muvofiqlashtirish va monitoring qilish ishlari hamda mablag'larning sarflanishi to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga hisobot kiritib borsin.

Moliya vazirligi (T. Ishmetov) davlat ijtimoiy buyurtmalari doirasida loyihalarni to'liq va o'z vaqtida moliyalashtirishni hamda davlat ijtimoiy buyurtmalari doirasida qurilgan ichimlik suvi ta'minoti tizimini boshqaradigan ichimlik suvi ta'minoti tashkiloti tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun narxlarni (tariflarni) tasdiqlashda amaliy yordam ko'rsatilishini ta'minlasin.

10. Vazirlik (M. Saliyev) bir oy muddatda ushbu Farmonga muvofiq davlat ijtimoiy buyurtmalarini shakllantirish va ularning amalga oshirilishiga ko'maklashish hamda natijadorligini monitoring qilish uchun Uy-joy kommunal xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan xorijiy va mahalliy ekspertlarni jalb qilsin.

11. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra:

a) 2021-yil 1-yanvardan boshlab oqova suvlarni tozalash uchun zamonaviy texnologiyalarni tanlashda ishtirokchilar takliflari o'tasida teng sharoitlar yuzaga kelgan hollarda bitimni tuzish bo'yicha ustuvorlik huquqi taklif qilinayotgan texnologiyaga servis xizmat

ko'rsatish va uning ehtiyyot qismlari bilan uzlusiz ta'minlash majburiyatini olgan ishtirokchilarga beriladi;

b) 2022-yil 1-yanvardan boshlab:

markazlashtirilgan oqova suv tizimiga ulanmagan aholi punktlarida uy-joy komplekslari oqova suv tozalash inshootlari bilan birga quriladi;

oqova suv tozalash inshootlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish yoki yangi inshootlarni qurish loyihalari bo'yicha texnologik yechimlarni saralash uchun tanlov (tender) o'tkazish davomida inshootning kelgusidagi ekspluatatsiya xarajatlarini maqbullashtirish va unga jami sarflangan mablag'larning to'liq qoplanishi hisobga olinadi;

v) 2023-yil 1-yanvardan boshlab:

Davlat budjeti, hukumat kafolati ostida jalb qilingan xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobiga ishlab turgan oqova suv tozalash inshootlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish hamda yangi oqova suv tozalash inshootlari qurilishi bilan bog'liq loyihalashtirish va qurilish-montaj ishlarida yuqori ekspluatatsiya xarajatlarini talab qiladigan va sarflangan mablag'larni 10 yildan ko'p muddatda qoplaydigan eski samarasiz texnologiyalar qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi;

oqova suv tozalash inshootlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish yoki yangi inshootlarni qurishda uzlusiz tozalash sikli, xususan kavitatsion-fermentli ishlov berish innovatsion usuli hamda boshqa innovatsion usullar qo'llaniladi.

12. Quyidagilar:

a) "O'zsuvta'minot" AJ zimmasiga — o'zi tomonidan ekspluatatsiya qilinadigan ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv obyektlarini qurish, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish hamda loyihalashtirish bo'yicha buyurtmachi;

b) Vazirlik zimmasiga:

ilg'or xorijiy tajriba asosida mamlakatda ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv xizmatlari ko'rsatish sohasini samarali rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta'minlash;

Oldingi tahririga qarang.

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv xizmatlari bilan qamrab olinganligi darajasi bo'yicha respublikadagi barcha hududlarning, shu jumladan tuman, shahar va qishloq aholi punktlari kesimida batafsil elektron ma'lumotlar bazasini yuritish;

(12-bandning “b” kichik bandi uchinchi xatboshisi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-maydagি PF-140-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.05.2022-y., 06/22/140/0450-son)

ichimlik suvi ta’mnoti va oqova suv xizmatlaridan foydalanish imkonи bo’lmagan aholi yashash punktlarini ichimlik suvi ta’mnoti va oqova suv xizmatlari bilan qamrab olish uchun davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish hamda suv ta’mnoti va oqova suv xizmatlarini ko’rsatish sohasida xususiy sektorning ishtirokini, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida kengaytirish;

ichimlik suvi ta’mnoti va oqova suv xizmatlari ko’rsatish sohasidagi me’yoriy va metodologik bazani ishlab chiqish va tasdiqlash, shuningdek, ichimlik suvi ta’mnoti va oqova suv xizmatlari bo’yicha tariflar siyosatini shakllantirishga ko’maklashish;

Oldingi tahririga qarang.

respublikadagi ichimlik suvi ta’mnoti va oqova suv tizimlarini rivojlantirish bosh sxemasining ishlab chiqilishini va yangilab borilishini ta’minlash;

(12-bandning “b” kichik bandi oltinchi xatboshisi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-maydagи PF-140-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.05.2022-y., 06/22/140/0450-son)

v) Vazirlik huzuridagi Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi zimmasiga:

investitsiya dasturlari asosida ichimlik suvi ta’mnoti va oqova suv obyektlarida amalga oshirilgan qurilish, rekonstruksiya va modernizatsiya ishlari natijasida iste’molchilarining suv ta’mnoti va kanalizatsiya xizmatlari bilan qamrab olinishi hamda tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar, suv ta’mnoti va oqova suv tashkilotlari bilan iste’molchilar o’rtasida shartnomaviy munosabatlar yo’lga qo’ylganligi ustidan nazorat qilish;

Oldingi tahririga qarang.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati hamda Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo’mitasi bilan birgalikda tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar, suv ta’mnoti tashkilotlari tomonidan aholiga yetkazib berilayotgan ichimlik suvining sifati, standartlar va o’rnatilgan talablarga javob berishi yuzasidan nazorat o’rnatish funksiyalari yuklansin.

(12-band “v” kichik bandining uchinchi xatboshisi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyuldagi PF-108-

sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.07.2023-y., 06/23/108/0460-son)

13. “O’zuvta’mnot” AJ suv ta’mnoti tashkilotlarining Majburiy ijro byurosini rivojlantirish jamg’armasi oldidagi 112,9 mlrd so’m qarzdorligi **6-ilovadagi** ro’yxatga asosan hisobdan chiqarilsin.

14. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil “O’zuvta’mnot” AJ va uning tizimi tashkilotlari faoliyatiga davlat organlari tomonidan qonunga xilof ravishda aralashish, shu jumladan ularning xodimlarini faoliyat yo’nalishiga xos bo’lmagan ishlarga jalb qilish holatlarining oldini olish yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

Vazirlar Mahkamasi ikki hafta muddatda “O’zbekkommunalloyihaqurilish” DUKni Vazirlik tizimidan chiqarish va “Suv ta’mnoti va kanalizatsiya obyektlarini qurish bo'yicha injiniring kompaniyasi” DUK va uning hududiy boshqarmalarini “O’zuvta’mnot” AJga berish to’g’risida qaror qabul qilsin.

15. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi “O’zuvta’mnot” AJ ta’sis hujjatlariga, shu jumladan vazifalariga mazkur Farmondan kelib chiqib, tegishli o’zgartirish va qo’shimchalar kiritilishini ta’mnlasin.

16. Vazirlik “O’zuvta’mnot” AJ, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Davlat geologiya qo’mitasi bilan birgalikda 2021-yildan boshlab xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kredit va grant mablag’lari hisobidan 2035-yilgacha ichimlik suvi ta’mnoti va oqova suv tizimlarini rivojlantirish sxemalarini ishlab chiqish hamda ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari bilan qamrab olinmagan respublikadagi barcha hududlarning, shu jumladan tuman, shahar va qishloq aholi punktlari kesimida bataysil elektron ma'lumotlar bazasini yuritish uchun zarur mablag’lar jalb etilishini ta’mnlasin.

17. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga **7-ilovaga** muvofiq o’zgartirish va qo’shimchalar kiritilsin.

18. Vazirlik manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o’zgartirish va qo’shimchalar to’g’risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirtsin.

19. Ushbu Farmonning ijrosini nazorat qilish O’zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2020-yil 25-sentabr,
PF-6074-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi PF-6074-son Farmoniga
1-ILOVA

2021-2022-yillarda ichimlik suvi ta'minoti tizimlari tadbirkorlik subyektlariga davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida topshiriladigan tuman va shaharlar

RO'YXATI

T/r	Hududlar nomi	Loyiha nomi	Aholi soni, ming kishi	Ta'minlanganlik darajasi	Loyihaning dastlabki qiymati, ming. AQSh dollari	Amalg'a oshiris h muddati	Mas'ullar
Respublika bo'yicha jami:			4876,1	37,2 %	960 020,0		
1.	Toshkent viloyati Angren shahrida (Qiziltog', Yangiobod va Dukent shaharchalari)	Ichimlik suvi ta'minoti tizimlarini moderniza tsiya qilish va boshqarish loyihasi	178,6	72,6 %	269 000,0	2021 yil IV cho'rak	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi (M. Saliyev), "O'zsuvta'm inot" AJ (S. Saifnazarov), Toshkent viloyati hokimligi (R. Xolmatov), DXSHRA (G. Xoljigitov)
2.	Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida (Paxtazor va Baxri-orol MFY)		264,2	97,4 %	3 200,0	2021 yil IV cho'rak	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi (M. Saliyev), "O'zsuvta'm inot" AJ (S. Saifnazarov), Qashqadaryo

						o viloyati hokimligi (Z. <i>Mirzayev</i>), DXSHRA (G'. <i>Xoljigitov</i>)
3.	Sirdaryo viloyati Guliston shahrida (Bahor va Ibratli MFY)	92,1	99,0 %	9 200,0	2021- yil IV cho rak	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi (M. <i>Saliyev</i>), “O'zsuvt'a'm inot” AJ (S. <i>Saifnazarov</i>) ,
4.	Toshkent viloyati Chirchiq shahrida (Arancha qo'rg'oni)	126, 5	100,0 %	132 200,0	2021- yil IV cho rak	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi (M. <i>Saliyev</i>), “O'zsuvt'a'm inot” AJ (S. <i>Saifnazarov</i>) ,
5.	Andijon viloyati Asaka tumanida	307, 7	79,7 %	15 000,0	2021- yil	Uy-joy kommunal xizmat

	(Yuqori Bo‘z va Olaqanot MFY)				IV cho rak	ko‘rsatish vazirligi (<i>M. Saliyev</i>), “O‘zuvta’m inot” AJ (<i>S. Saifnazarov</i>) ,
6.	Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanida (Xamid Olimjon va Robot MFY)	204, 9	23,0%	58 500,0	2021yi 1 IV cho rak	Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi (<i>M. Saliyev</i>), “O‘zuvta’m inot” AJ (<i>S. Saifnazarov</i>) ,
7.	Andijon viloyati Ulug‘nor tumanida (Fayzobod va Nurobod MFY)	58,5	82,0 %	11 600,0	2021- yil IV cho rak	Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi (<i>M. Saliyev</i>), “O‘zuvta’m inot” AJ (<i>S. Saifnazarov</i>) ,

							hokimligi (S. h. <i>Abduraxmon ov</i>), DXSHRA (G'. <i>Xoljigitov</i>)
8.	Samarqand viloyati Nurobod tumanida (Xakkar va O'ttizquloch MFY)	143, 9	36,0%	28 270,0	2021-yil IV cho rak	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi (M. Saliyev), “O'zsuvtam inot” AJ (S. Saifnazarov), ,	Samarqand viloyati hokimligi (E. Turdimov), DXSHRA (G'. <i>Xoljigitov</i>)
9.	Toshkent viloyati Bo'ka tumanida (Bo'ka tuman markazi)	120, 1	31,0 %	12 000,0	2021-yil IV cho rak	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi (M. Saliyev), “O'zsuvtam inot” AJ (S. Saifnazarov), ,	Toshkent viloyati hokimligi (R. Xolmatov), DXSHRA (G'. <i>Xoljigitov</i>)
10 .	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Aholiga maxsus texnikalar yordamida	154, 4	34,0 %	12 600,0	2021-yil IV cho rak	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish

	Ellikqal'a tumanida (Qizilqum, Guliston va Akchako'l OFY, Kabatkala MFY)	ichimlik suvi yetkazib berish loyihasi				vazirligi (M. Saliyev), “O'zsuvtam inot” AJ (S. Saifnazarov),
11 .	Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumanida (Oqboshli, Oqqamish, Otauba, Kaltaminor, O'zbekiston, Paxtachi, Ullubog' va Sho'raxan KFY)		208, 3	37,0%	15 500,0 2021-yil IV cho rak	Qoraqalpog' iston Respublikasi Vazirlar Kengashi (K. Sariyev), DXSHRA (G. Xoljigitov)
12 .	Qoraqalpog'iston Respublikasi Kegeyli tumanida (Ajim va Yettiqurt OFY)		89,1	42,0%	14 600,0 2021-yil IV cho rak	
13 .	Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumanda (Qizilo'zak va Baxtli OFY)		114, 5	36,0%	19 700,0 2021-yil IV cho rak	
14 .	Jizzax viloyati Yangiobod tumanida (Do'stlik MFY va Yangiobod SHFY)	Ichimlik suv ta'minoti tizimlarini moderniza tsiya qilish va boshqarish loyihasi	26,9	43,0 %	51 000,0 2021-yil IV cho rak	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi (M. Saliyev), “O'zsuvtam inot” AJ (S. Saifnazarov), Jizzax viloyati hokimligi (E. Saliyev), DXSHRA

						(G'. Xoljigitov)
15.	Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanida (Qoludar va Ingichka MFY)		148,2	6,0 %	27 800,0	2021-yil IV cho rak Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi (M. Saliyev),
16.	Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanida (Badaxshon va Olmazor MFY)		259,5	55,0 %	26 200,0	2021-yil IV cho rak “O'zuvta'm inot” AJ (S. Saifnazarov), Qashqadaryo viloyati hokimligi (Z. Mirzayev) DXSHRA (G'. Xoljigitov)
17.	Navoiy viloyati Tomdi tumanida (Tomdibuloq OFY-Sharq va Rohat massivi, Oqtov OFY)	Aholiga maxsus texnikalar yordamida ichimlik suvi yetkazib berish loyihasi	14,3	27,0%	12 900,0	2022-yil IV cho rak Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi (M. Saliyev), “O'zuvta'm inot” AJ (S. Saifnazarov),
18.	Navoiy viloyati Nurota tumanida (Ibn Sino va Qizilcha MFY)	Ichimlik suv ta'minoti tizimlarini moderniza tsiya qilish va boshqarish loyihasi	89,4	34,0 %	13 100,0	2022-yil IV cho rak Navoiy viloyati hokimligi (K. Tursunov), DXSHRA (G'. Xoljigitov)
19.	Namangan viloyati Namangan tumanida (Dehqonobod MFY)		174,6	48,0%	16 800,0	2022-yil IV cho rak Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi (M. Saliyev),

20	Namangan viloyati Norin tumanida (Do'stlik va Katta yaydoq MFY)	160, 3	48,0%	17 800,0	2022-yil IV cho rak	“O'zuvta'm inot” AJ (S. Saifnazarov), Namangan viloyati hokimligi (X. Bozarov), DXSHRA (G. Xoljigitov)
21	Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida (Yortepa va Sayram MFY)	220, 6	44,0%	24 100,0	2022-yil IV cho rak	
22	Samarqand viloyati Oqdaryo tumanida (Paxtabod va Zarafshon MFY)	152, 7	21,0 %	12 190,0	2022-yil IV cho rak	
23	Samarqand viloyati Jomboy tumanida (Kichik Nazar va Yettio'g'il MFY)	163, 1	18,0%	26 880,0	2022-yil IV cho rak	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi (M. Saliyev), “O'zuvta'm inot” AJ (S. Saifnazarov),
24	Samarqand viloyati Ishtixon tumanida (J. Maxmudov va G'afur G'ulom MFY)	242, 0	37,0%	24 920,0	2022-yil IV cho rak	
25	Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanida (Abdol va Lo'laxur MFY)	261, 7	27,0%	22 620,0	2022-yil IV cho rak	“O'zuvta'm inot” AJ (S. Saifnazarov), Samarqand viloyati hokimligi (E. Turdimov), DXSHRA (G. Xoljigitov)
26	Samarqand viloyati Toyloq tumanida (Olmazor va Charog'bon MFY)	191, 8	46,0%	22 240,0	2022-yil IV cho rak	

27.	Surxondaryo viloyati Qiziriq tumanida (Shodlik, Rabatog‘, Zarobod va Oqjar MFY)		162,8	32,0 %	18 800,0	2022-yil IV cho rak	“Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi (M. Saliyev), “O‘zuvta’m inot” AJ (S. Saifnazarov) , Surxondaryo viloyati hokimligi (T. Bobolov), DXSHRA (G. Xoljigitov)
28.	Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanida (Bo‘ston va Duoba MFY)	Ichimlik suv ta’mnoti tizimlarini moderniza tsiya qilish va boshqarish loyihasi	173,0	28,0%	17 000,0	2022-yil IV cho rak	Surxondaryo viloyati hokimligi (T. Bobolov), DXSHRA (G. Xoljigitov)
29.	Toshkent viloyati Quyichirchiq tumanida (Do‘stlik, Beruniy MFY)	Ichimlik suv ta’mnoti tizimlarini moderniza tsiya qilish va boshqarish loyihasi	103,0	30,0 %	6 000,0	2022-yil IV cho rak	Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi (M. Saliyev), “O‘zuvta’m inot” AJ (S. Saifnazarov) , Toshkent viloyati hokimligi (R. Xolmatov), DXSHRA (G. Xoljigitov)
30.	Toshkent viloyati O‘rtachirchiq tumanida (Olti-o‘g‘il, Adolat, Gulzor, O‘choqli va Namdanak MFY)	Ichimlik suv ta’mnoti tizimlarini moderniza tsiya qilish va boshqarish loyihasi	138,7	26,0%	11 200,0	2022-yil IV cho rak	“O‘zuvta’m inot” AJ (S. Saifnazarov) , Toshkent viloyati hokimligi (R. Xolmatov), DXSHRA (G. Xoljigitov)

Izoh: Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda “O‘zuvta’m not” AJ tomonidan mazkur ro‘yxatga qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi PF-6074-son Farmoniga
2-ILOVA

2021 — 2025-yillarga mo‘ljallangan respublika va viloyatlarga bo‘ysunuvchi shaharlar kesimida ichimlik suvi ta’mnoti tizimlarini kompleks rivojlantirish dasturining yig‘ma parametrlari

T / r	T / r	Hudu dlar nomi	Aholi soni (ming kishi)		Ta'min langanl ik darajas i (foiz)	Moliya lashtiri sh, mln. AQSh dollari (Davlat budjet i)	Moliya lashtiri sh manba i	Bajar ish mud dati	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash bo'yicha prognoz parametrlari		
			ja mi	shu jumlad an marka zlashg an ichimli k suvi bilan ta'minl anganlar					ah oli so ni (m in g kis hi)	Ta'min langanl ik darajas i (foiz)	
		Respublika bo'yicha jami :	78 61 ,6	7434,1	94,6	979,3			3486,5	53 41 ,2	98,5
		Qoraqalp og'iston Respublik asi	30 7, 4	283,0	92,1	1,3			54,1	30 6, 0	99,5
1 . 1	Nukus shahri		30 7, 4	283,0	92,1	1,3	Osiyo infrastr uktura investit siya banki	2021 — 2025 yy.	54,1	30 6, 0	99,5
		Andijon viloyati	46 0, 9	454,8	98,7	1,7			60,2	45 2, 8	98,2
	2	Andijo n shahri	41 8, 6	418,6	100,0	1,4	Moliya vazirlig i huzurid agi Suv ta'mino ti va kanaliz atsiya tizimlar ini rivojlan tirish jamg'ar masi		43,0	41 2, 3	98,5
2 . 3	Xonob od shahri		42 ,3	36,2	85,5	0,3		2021 — 2023 yy.	17,2	40 ,5	95,7

	Buxoro viloyati	41 1, 3	378,3	92,0	14,0			574,3	39 8, 0	98,4
3 .	4 Buxoro shahri	27 6, 7	276,7	100,0	11,1	Osiyo infrastrukturatura investitsiya banki	2020 — 2024	456,3 118,0	27 0, 0 12 8, 0	97,6 95,1
	5 Kogon shahri	13 4, 6	101,6	75,5	2,9		yy.			
4 .	Jizzax viloyati	16 9, 6	161,5	95,2	13,3			307,5	16 7, 0	98,5
	6 Jizzax shahri	16 9, 6	161,5	95,2	13,3	Moliya vazirligi huzuridagi Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlanishiga jamg'armasi	2021 — 2023 yy.	307,5	16 7, 0	98,4
5 .	Qashqada ryo viloyati	60 7, 9	463,0	76,2	9,2			332,6	60 1, 2	98,9
	7 Qarshi shahri	26 4, 2	257,3	97,4	3,2	Moliya vazirligi huzuridagi Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlanishiga jamg'armasi		83,60	26 1, 0	98,8
	8 Shahri sabz shahri	34 3, 7	205,8	59,9	6,0		2021 — 2023 yy.	249,0	34 0, 2	99,0
6 .	Navoiy viloyati	21 6, 9	212,9	98,2	1,0			31,4	21 6, 1	99,6
	9 Navoiy shahri	13 5, 5	134,0	98,9	0,4	Moliya vazirligi		7,4	13 5, 0	99,6

1 0	Zarafs hon shahri	81 ,4	78,9	97,0	0,6	huzurid agi Suv ta'mino ti va kanaliz atsiya tizimlar ini rivojlan tirish jamg'ar masi	2021 — 2023 yy.	24,0	81 ,1	99,6	
7 •	Namanga n viloyati	59 7, 4	563,2	94,3	61,5			272,4	59 0, 0	98,8	
	Naman gan shahri	59 7, 4	563,2	94,3	61,5	Yevrop a tiklanis h va taraqqi yot banki	2020 — 2024 yy.	272,4	59 0, 0	98,8	
8 •	Samarqan d viloyati	60 9, 8	591,1	96,9	106,0			255,8	60 3, 8	99,0	
	Samar qand shahri	52 3, 8	523,4	99,9	60,0	Abu- Dabi rivojlan tirish jamg'ar masi	2020 — 2024 yy.	192	52 2, 0	99,6	
	Kattaq o'rg'o n shahri	86 ,0	67,8	78,8	46,0	Jahon banki	2021 — 2025 yy.	64	81 ,8	95,0	
9 •	Surxonda ryo viloyati	14 3, 9	137,3	95,4	12,4			88,0	14 2, 9	99,3	
	Termiz shahri	14 3, 9	137,3	95,4	12,4	Moliya vazirlig i huzurid agi Suv ta'mino ti va kanaliz atsiya tizimlar ini rivojlan tirish	2021 — 2023 yy.	88,0	14 2, 9	99,3	

						jamg‘ar masi					
		Sirdaryo viloyati	14 7, 0	134,4	91,4	18,0		254,2	14 6, 4	99,6	
1 0 •	1 5	Gulisto n shahri	92 ,1	91,1	99,0	9,2	Jahon banki	2021	117,7	92 ,0	
	1 6	Yangiy er shahri	39 ,1	28,6	73,0	5,2		2024	96,6	38 ,9	
	1 7	Shirin shahri	15 ,9	14,7	92,8	3,6		yy.	39,9	15 ,5	
1 1 •		Toshkent viloyati	65 8, 1	585,5	89,0	677,7			747,3	65 3, 8	
	1 8	Angre n shahri	17 8, 6	129,72	72,6	269,0	Moliya vazirlig i huzurid agi Suv ta'mino ti va kanaliz atsiya tizimlar ini rivojlan tirish jamg‘ar masi	2021	239,0	17 8, 2	99,8
	1 9	Olmali q shahri	12 6, 5	126,53	100,0	101,4		2023	127,0	12 5, 3	99,0
	2 0	Bekob od shahri	91 ,9	88,39	96,2	43,1		yy.	54,4	91 ,3	99,4
	2 1	Chirch iq shahri	12 6, 5	126,50	100,0	132,2	XMI mablag 'lari	2021 — 2025 yy.	160,2	12 6, 0	99,6
	2 2	Ohang aron shahri	39 ,3	39,29	100,0	24,6	Moliya vazirlig i huzurid agi Suv ta'mino ti va kanaliz atsiya tizimlar ini rivojlan tirish jamg‘ar masi	2017 — 2023 yy.	31,1	39 ,0	99,3

	2	Yangiy o‘l shahri	61 ,0	60,68	99,5	59,4	Osiyo taraqqi yot banki	2020 — 2024 yy.	75,0	60 ,0	98,4
	2	Nurafs hon shahri	34 ,3	14,36	41,9	48,0	XMI mablag ‘lari	2021 — 2025 yy.	60,6	34 ,0	99,2
	3	Farg‘ona viloyati	83 6, 5	796,8	95,3	5,8			278,0	83 2, 5	99,5
	2	Farg‘o na shahri	28 3, 4	274,7	96,9	1,0	XMI mablag ‘lari	2021 — 2025 yy.	54,7	28 3, 0	99,8
	2	Marg‘i lon shahri	22 7, 4	218,5	96,1	2,0			149,9	22 7, 0	99,8
1	2	Quvas oy shahri	88 ,8	67,2	75,7	1,1	Moliya vazirligi huzurid agi Suv ta’mino ti va kanaliz atsiya tizimlar ini rivojlan tirish jamg‘ar masi	2021 — 2023 yy.	41,1	88 ,5	99,6
	2	Qo‘qo n shahri	23 6, 9	236,4	99,8	1,8			32,3	23 4, 0	98,7
	3	Xorazm viloyati	22 9, 1	214,0	93,4	5,1			147,2	22 8, 2	99,6
	1	Urganch shahri	14 3, 2	140,9	98,4	0,8	Osiyo infrastr uktura investit siya banki	2021 — 2025 yy.	24,2	14 3, 0	99,9
	2	Xiva shahri	85 ,9	73,0	85,0	4,3			123,0	85 ,2	99,2
	3	Pitnak shahri	55 ,1	42,0	76,2	5,4			135,0	23 ,1	99,4
1	4	Toshk ent shahri	24 65 ,6	2458,2	99,7	52,3	Yevrop a tiklanis h vataraq qiyot banki	2020 — 2023 yy.	83,5	2, 5	99,8

1 5	2021 — 2025-yillarda respublika va viloyatlarga bo‘ysunuvchi shaharlar ichimlik suvi ta’mnoti tizimida Geoaxborot tizimini joriy etish	10,0	XMI mablag ‘lari	2020 — 2025 yy.		
----------------	--	------	------------------------	--------------------------	--	--

Eslatma: Loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilib, ekspertiza xulosalari olingandan so‘ng moliyalashtirish va ish hajmiga aniqlik kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi PF-6074-son Farmoniga
3-ILOVA

2021 — 2025-yillarga mo‘ljallangan tuman markazlari kesimida ichimlik suvi ta’mnoti tizimlarini kompleks rivojlantirish dasturining yig‘ma parametrlari

T /r	T /r	Hududlar nomi	Aholi soni (ming kishi)		Ta’minla nganlik darajasi (foiz)	Ichimlik suvi ta’mnotini yaxshilash bo‘yicha proqnoz parametrlari		Mablag ‘larga bo‘lgan taxmini y ehtiyoj, mln AQSh dollari	Ta’minla nganlik darajasi (foiz)
			ja mi	shu jumladan markazla shgan ichimlik suvi bilan ta’minlan ganlar		ah oli son i (mi ng kis hi)	qurilish va rekonstr uksiya (km)		
		Respublika bo‘yicha jami:	249 36	14479	58	216 46	44906,4	3124,8	87
1.		Qoraqalpog‘iston Respublikasi	154 3	683	44	124 9	5393,7	292,9	81
		tumanlar:							
	1	Amudaryo	193	59	30	151	644,2	22,4	78
	2	Beruniy	186	54	29	149	858,0	24,2	80
	3	Qorao‘zak	52	22	42	42	365,7	13,3	81
	4	Qonliko‘l	50	33	65	46	161,6	18,3	92
	5	Kegeyli	89	37	42	70	235,2	14,6	79
	6	Qo‘ng‘iroq	128	81	63	105	804,3	57,2	82
	7	Mo‘ynoq	31	13	41	28	238,6	17,0	90
	8	Nukus	49	28	57	46	356,4	16,9	95
	9	Taxtako‘pir	40	21	52	28	113,7	13,9	71
	10	Taxiatosh	72	44	61	68	130,8	14,9	94
	11	To‘rtko‘l	208	78	37	158	244,3	15,5	76
	12	Xo‘jayli	120	94	78	110	213,3	16,2	91
	13	Chimboy	114	42	36	78	388,9	19,7	68

	¹ ₄	Sho‘manoy	55	28	50	51	225,3	16,1	93
	¹ ₅	Ellikqal‘a	154	52	34	119	413,6	12,6	77
2.	Andijon viloyati	259 0	2173	84	239 8	2970,3	198,5	93	
	tumanlar:								
	1	Andijon	318	269	85	299	301,3	14,6	94
	2	Asaka	253	211	84	236	267,0	15,0	93
	3	Baliqchi	193	153	80	176	359,3	17,6	91
	4	Bo‘z	70	61	86	65	77,5	11,6	93
	5	Buloqboshi	140	125	89	131	142,0	12,9	93
	6	Jalaquduq	183	161	88	169	292,0	16,1	92
	7	Izboskan	232	182	79	212	297,0	17,0	92
	8	Marhamat	169	131	78	160	198,0	13,3	94
	9	Oltinko‘l	173	153	89	157	217,5	13,9	91
	¹ ₀	Paxtaobod	188	163	87	172	147,8	13,2	92
	¹ ₁	Ulug‘nor	58	48	82	53	88,5	11,6	91
	¹ ₂	Xo‘jaobod	108	95	88	99	105,0	11,8	92
	¹ ₃	Shahrixon	292	242	83	271	222,2	15,9	93
	¹ ₄	Qo‘rg‘onte pa	212	178	84	198	255,2	14,2	93
3.	Buxoro viloyati	153 3	664	43	124 1	7660,1	369,7	81	
	tumanlar:								
	1	Olot	96	41	43	93			97
	2	Buxoro	160	148	92	126	756,1	30,9	79
	3	Vobkent	135	73	54	109	348,7	16,4	81
	4	G‘ijduvon	299	104	35	230	648,7	31,2	77
	5	Kogon	74	41	55	60	469,9	32,0	81
	6	Qorovulbo zor	18	17	93	14	1083,5	42,1	76
	7	Qorako‘l	158	29	18	150			95
	8	Peshku	118	55	46	92	1232,9	68,2	78
	9	Romitan	136	54	40	108	1025,3	51,9	79
	¹ ₀	Jondor	168	54	32	131	1310,9	65,0	78
	¹ ₁	Shofirkon	171	50	29	129	784,1	32,0	75
4.	Jizzax viloyati	114 0	624	55	106 0	2326,9	371,4	93	
	tumanlar:								
	1	Arnasoy	44	35	79	41	253,9	21,0	92
	2	Baxmal	148	77	52	134	137,6	16,0	91
	3	G‘allaorol	163	113	69	152	209,6	21,8	93

	4	Sharof Rashidov	205	47	23	191	181,5	58,5	93
	5	Do'stlik	63	47	75	57	202,5	21,2	91
	6	Zomin	168	100	59	160	237,5	29,5	95
	7	Zarbdor	68	40	58	63	229,2	22,5	93
	8	Zafarobod	47	31	66	46	229,9	26,9	98
	9	Mirzacho'l	48	35	72	47	176,2	26,7	97
	10	Paxtakor	71	54	76	65	194,1	32,1	92
	11	Forish	88	36	41	78	168,6	44,2	89
	12	Yangiobod	27	12	43	25	106,1	51,0	95
5.	Qashqadaryo viloyati		2745	1362	50	2249	3746,3	257,4	82
	tumanlar:								
	1	G'uzor	196	4	2	102	297,1	35,5	52
	2	Dehqonobod	141	8	6	105	270,9	27,8	75
	3	Qarshi	236	132	56	206	416,1	17,6	87
	4	Koson	272	77	28	204	373,0	23,5	75
	5	Qamashi	260	143	55	231	333,7	26,2	89
	6	Kitob	254	153	60	231	358,1	17,4	91
	7	Kasbi	188	143	76	167	325,6	15,6	89
	8	Nishon	145	101	70	126	238,0	16,7	87
	9	Muborak	83	43	52	64	267,5	18,4	77
	10	Mirishkor	115	75	65	92	260,7	15,9	80
	11	Chiroqchi	389	207	53	292	161,0	13,8	75
	12	Shahrisabz	214	134	63	199	210,4	13,9	93
	13	Yakkabog'	252	143	57	230	234,2	15,1	91
6.	Navoiy viloyati		746	382	51	604	851,4	108,5	81
	tumanlar:								
	1	Karmana	128	118	92	120	147,0	18,3	94
	2	Konimex	30	13	44	17	40,2	12,2	58
	3	Qiziltepa	147	83	57	119	259,7	15,1	81
	4	Navbahor	109	69	63	106	169,1	14,8	98
	5	Nurota	89	31	34	70	65,0	13,1	78
	6	Tomdi	14	4	27	13	61,9	12,9	93
	7	Xatirchi	192	30	15	123	96,5	16,0	64
	9	Uchquduq	37	34	92	35	12,0	6,0	95
7.	Namangan viloyati		2141	1148	54	1862	3328,8	190	87
	tumanlar:								
	1	Mingbuloq	123	64	52	110	342,3	19,7	89
	2	Kosonsoy	204	112	55	186	412,7	23,7	91

	3	Namangan	175	84	48	147	284,2	16,8	84
	4	Norin	160	77	48	138	268,4	17,8	86
	5	Pop	215	69	32	191	319,5	23,5	89
	6	To‘raqo‘rg‘on	221	97	44	201	374,8	24,1	91
	7	Uychi	208	163	78	177	219,4	9,5	85
	8	Uchqo‘rg‘on	168	96	57	148	319,8	10,5	88
	9	Chortoq	195	113	58	162	217,5	16,8	83
	10	Chust	260	164	63	226	343,9	10,7	87
	11	Yangiqo‘rg‘on	213	109	51	179	226,2	16,9	84
8.		Samarqand viloyati	3104	1771	57	2877	4010,2	244,2	93
		tumanlar:							
	1	Oqdaryo	153	32	21	130	181,4	12,19	85
	2	Bulung‘ur	179	153	85	178	221,0	16,21	99
	3	Jomboy	163	29	18	161	401,6	26,88	99
	4	Ishtixon	242	91	37	194	429,4	24,92	80
	5	Kattaqo‘rg‘on	262	70	27	225	187,9	22,62	86
	6	Qo‘shabot	125	61	48	114	105,5	10,84	91
	7	Narpay	205	149	73	204	376,5	14,65	99
	8	Nurobod	144	51	36	127	524,2	28,27	89
	9	Payariq	239	119	50	198	264,3	15,14	83
	10	Pastdarg‘om	339	266	78	336	242,8	12,04	99
	11	Paxtachi	138	84	61	121	310,9	13,04	87
	12	Samarqand	241	221	92	231	180,0	12,55	96
